

TYUTORLIK FAOLIYATIDA YANGI BOSQICH: SAMARADORLIKNI BAHOLASH TIZIMI

Xoliqov Shoxrux Ikromali o'g'li

Toshkent davlat yuridik universiteti

Ommaviy huquq fakulteti tyutori

2-darajali yurist

Shohruxxoliqov97@gmail.com

O'zbekiston oliy ta'lim tizimida talabalar bilan ishlash samaradorligini oshirish, ularning ijtimoiy faolligini kuchaytirish hamda shaxsiy rivojini qo'llab-quvvatlash maqsadida yangi bosqichga o'tilmoqda. 2025-yil 17-oktabr kuni Vazirlar Mahkamasining **656-son qarori** qabul qilinib, oliy ta'lim tashkilotlarida **tyutorlik faoliyatini tashkil etish tartibi to'g'risidagi Nizom** va **tyutorlik faoliyatini takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar rejasi** tasdiqlandi. Ushbu qaror tyutorlik institutini tubdan isloh qilish, zamonaviy boshqaruv mexanizmlarini joriy etish hamda faoliyat samaradorligini oshirishga qaratilgan.

Islohatlar natijasida, **tyutorlik faoliyatining maqsadi va yangi yondashuvlar** ishlab chiqildi. Nizomda tyutorlik faoliyatining asosiy maqsad va vazifalari, tyutorlarning huquq va majburiyatlari, ularni tanlash, tayyorlash, boshqarish tartibi hamda malaka talablari aniq belgilandi. Tyutor endilikda faqat tashkiliy yoki nazorat vazifasini bajaruvchi emas, balki talabaning shaxsiy rivoji, ijtimoiy faolligi, ma'naviy barkamolligi va ta'limdagi muvaffaqiyatini yo'naltiruvchi hamroh sifatida faoliyat yuritadi. Shuningdek, tyutorlik faoliyatini muvofiqlashtirish tartibi ham belgilab qo'yilib, oliy ta'limda bu tizimning yagona standart asosida ishlashi ta'minlanadi.

Qarorga asosan **2025-yilda talaba manfaatlariga yo'naltirilgan islohotlar amalga oshirilishi nazarda tutilgan.**

Qarorga muvofiq, 2025-yil davomida talabalarning muammolari va qiziqishlarini chuqur o'rganishga qaratilgan bir qator yangiliklar joriy etiladi. Jumladan, har bir kurs vakillaridan iborat **"Kurs qo'mitalari"** tashkil etilib, talabalar bilan muloqot doimiy

yo'lga qo'yiladi. Ularning fikr va takliflari asosida **“Muammolarni bartaraf etish dasturi”** ishlab chiqiladi.

Shuningdek, talabalar uchun **maxsus ijtimoiy platforma va mobil ilovalar** yaratiladi, **medialaboratoriyalar** faoliyati yo'lga qo'yiladi. **“Yetakchi va faol talabalar maktabi”** tashkil etilib, iqtidorli yoshlar uchun liderlik ko'nikmalarini rivojlantirish imkoniyati yaratiladi. **“Bir ziyoli — 10 talabaga ma'naviy ustoz”** tizimi esa ma'naviy tarbiya va shaxsiy rivojda muhim omil bo'lishi kutilmoqda. Shu bilan birga, oliy ta'lim muassasalarida **musiqa va raqs ansambllari** faoliyati yo'lga qo'yiladi hamda 2025/2026-o'quv yili davomida **“O'zbekiston Qahramonlari”** darslari tashkil etiladi.

Eng muhim yangililardan biri **2026-yilda — samaradorlikni baholash tizimi joriy etiladi.**

2026-yilga kelib tyutorlar faoliyatini baholashda **KPI (asosiy ko'rsatkichlar tizimi)** asosida reyting tizimi joriy etiladi. Bu orqali har bir tyutorning samaradorligi, talabalarga ko'rsatgan yordami, tashabbuskorligi aniq raqamlar orqali baholanadi. Eng yuqori natija ko'rsatgan tyutorlar **rag'batlantiriladi**, past ko'rsatkichli xodimlarga esa **malaka oshirish yoki intizomiy chora** qo'llanadi.

Shuningdek, **tyutorlar faoliyatini monitoring qilish imkonini beruvchi raqamli platforma** yaratiladi, eng ilg'or tyutorlar **xorijiy tajriba almashish dasturlariga** yuboriladi. Shu yilda, har bir hududdagi bitta oliy ta'lim muassasasida **“Harbiy sport maydonchalari”** tashkil etiladi va **“Amir Temur vorislari” sport ko'rik-tanlovi** nizomi ishlab chiqiladi.

Bundan tashqari, tyutorlarning ijobiy tajribalarini ommalashtirish maqsadida har yili **“Eng yaxshi tyutor” tanlovi** o'tkazilishi belgilangan.

Ushbu islohotlar natijasida tyutorlik tizimi aniq mezonlar asosida boshqariladigan, shaffof va samarali tizimga aylanadi. Talabalarning muammolariga tezkor yechim topish, ularning tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash, shuningdek, ma'naviy tarbiyada yangi yondashuvlarni qo'llash imkoniyati kengayadi. Natijada, oliy ta'lim muassasalarida **talaba markazida bo'lgan, zamonaviy va innovatsion ta'lim muhiti** shakllanadi.

Vazirlar Mahkamasining 656-son qarori oliy ta'lim tizimida tyutorlik institutini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqadi. KPI asosida baholash, raqamli monitoring, rag'bat

va jazo mexanizmlarining joriy etilishi natijasida tyutorlarning mas'uliyati ortib, talabalarga ko'rsatilayotgan psixologik, ma'naviy va tashkiliy ko'mak yanada sifatli va tizimli bo'ladi.

Natijada, **har bir talaba e'tibor markazida bo'lgan, samarali va innovatsion ta'lim muhitiga ega oliy ta'lim tizimi** shakllanadi.

Tyutorlik faoliyatining yangi bosqichi – bu nafaqat boshqaruv tizimidagi islohot, balki talabaning shaxs sifatida kamol topishiga xizmat qiluvchi muhim qadriyat tizimidir.